

TAKROR HODISASINING LINGVISTIK MOHIYATI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Mamadaminova Durdona Muxamaddazim qizi

FarDU Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Kalit so'zlar: takror, emotsional-ekspressiv, lingvistik hodisa, kognitiv yondashuv, sintaktik takror, stilistika, matn

Annotatsiya: Mazkur maqolada takror lingvistik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Unda takrorning til tizimidagi o'rni, uning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarda namoyon bo'lish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, takrorning funksional-uslubiy va pragmatik vazifalari, nutqning emotsional-ekspressivligini oshirish hamda matnning semantik yaxlitligini ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqolada takror hodisasiga kognitiv yondashuv asosida baho berilib, uning inson tafakkuri va axborotni muhimlashtirish jarayonlari bilan bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari takrorning ko'p funksiyali va universal lingvistik hodisa ekanini ko'rsatadi.

Аннотация: В данной статье повтор рассматривается как лингвистическое явление. Анализируются его место в языковой системе, а также особенности проявления на фонетическом, лексическом, морфологическом и синтаксическом уровнях языка. Особое внимание уделяется функционально-стилистическим и прагматическим функциям повтора, его роли в усилении экспрессивности речи и обеспечении семантической целостности текста. С позиций когнитивной лингвистики раскрывается связь повтора с процессами мышления, актуализации и выделения информации. Результаты исследования подтверждают универсальный и многофункциональный характер повтора как языкового явления.

Annotation: This article examines repetition as a linguistic phenomenon. It analyzes the role of repetition within the language system and its manifestations at phonetic, lexical, morphological, and syntactic levels. Particular attention is paid to the functional-stylistic and pragmatic functions of repetition, as well as its role in enhancing emotional expressiveness and ensuring semantic coherence of the text. From a cognitive linguistic perspective, the article highlights the relationship between repetition and mental processes such as information emphasis and conceptual structuring. The findings demonstrate that repetition is a universal and multifunctional linguistic phenomenon.

Til — inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasini ifodalovchi murakkab va ko'p qatlamli tizimdir. U nafaqat aloqa vositasi, balki borliqni anglash, uni konseptuallashtirish va baholash jarayonining muhim kognitiv mexanizmi sifatida

namoyon bo‘ladi. Tilning ushbu murakkab tabiati uning barcha sathlarida xususan, fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarda turli xil hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Ana shunday hodisalardan biri takror bo‘lib, u til birliklarining nutqda qayta-qayta qo‘llanishi orqali ma’no kuchayishi, emotsional-ekspressivlikning ortishi va matnning mantiqiy yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Takror hodisasi tilshunoslikda faqat stilistik vosita sifatida emas, balki tilning ichki qonuniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan universal lingvistik hodisa sifatida qaraladi. U nutq jarayonida kommunikativ maqsadga xizmat qilishi bilan birga, til egasining kognitiv faoliyati, diqqatni jamlash kabi jarayonlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu bois takror masalasi lingvistikaning turli yo‘nalishlarida — sintaktik stilistika, matn lingvistikasi, pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslik doirasida keng tadqiq etilmoqda. Mazkur maqolada takrorning lingvistik hodisa sifatidagi mohiyati, uning asosiy funksiyalari va nutqdagi o‘rni yoritib beriladi.

Mazmun va mantiq nuqtayi nazaridan takror hodisasi emotsional-ekspressiv unsurlar bilan birgalikda qo‘shimcha axborotni yetkazishga xizmat qiladi. Takror orqali muallifning nutqiy pozitsiyasi, uslubiy yo‘nalishi hamda tasvirlanayotgan voqelik va hodisalarga munosabati yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Shu sababli takror nafaqat shakliy hodisa, balki muhim semantik va pragmatik vazifani bajaruvchi lingvistik vosita hisoblanadi.

Takror bilan bog‘liq muammolardan biri uning lisoniy maqomini belgilash masalasidir. Antik davrda takror ritorik vositalar tizimiga kiritilgan bo‘lib, nutq ta’sirchanligini oshiruvchi usul sifatida qaralgan. Keyinchalik stilistika mustaqil fan sifatida shakllangach, takror stilistik hodisa sifatida izohlanib, uning turlari va funksiyalariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Takror – (arabcha تكرر – qaytariq, takrorlash)¹.

Ilmiy tadqiqotlarda takror hodisasi tilning turli sathlarida — fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarda hamda turli fan sohalari, xususan, tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida o‘rganilgan. Shuningdek, takror masalasi nutq faoliyati nazariyasi va interaktiv muloqot jarayonlarini tahlil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

V.A. Maltsevning fikriga ko‘ra, takror turli lisoniy birliklar sathida parallelizmning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Parallelizm esa matn segmentlari o‘rtasidagi munosabatni mustahkamlab, simmetrik tuzilmalarni shakllantiradi hamda segmentlarning kompozitsion tartibini izga soladi. Natijada matn mazmunining yaxlitligi ta’minlanadi va uning semantik birligi qayta tiklanadi².

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, takror hodisasi matndagi axborotning tizimli tarzda joylashuviga xizmat qilib, o‘quvchining matn mazmunini idrok etishini osonlashtiradi.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 40-bet.

² Мальцев В. А. Параллелизм, его связи с пофтором и роль в организации художественного текста // Романское и германское языкознание. – Минск: Изд-во Минск. гос.пед. ин- та ин.яз, 1976. – С. 128-140

Shu jihatdan takror nafaqat stilistik vosita, balki matnning semantik va strukturaviy yaxlitligini ta'minlovchi muhim lingvistik mexanizm sifatida ham baholanadi.

A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da takror ayni so'zning sintaktik birlik sifatida ikki va undan ortiq holda qo'llanilishi, takroriy so'z ayni so'zni takror holda qo'llash bilan tuzilib, ko'plik, davomiylik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z, so'zning takroriy shakli sifatida talqin qilinadi³.

A. Mamajonovning "Takror va uning sintaktik-stilistik funksiyasi" nomli maqolasida vertikal takror va uning ko'rinishlariga qisman to'xtalib, quyidagi xulosaga keladi: takror eng sarmahsul sintaktik-stilistik figura bo'lib, har bir turi alohida chuqur tadqiqotni talab qiladi. Bu holat sintaktik takror bo'yicha aniq va asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi⁴.

A. Mamajonovning qayd etishicha, takrorning ko'p sonli turlari mavjud bo'lib, u stilistik vositalar ichida eng samarali va sarmahsul hisoblanadi. Shuning uchun undan ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tilning badiiylik jihatdan boyligi uning ifoda vositalariga bog'liq. Badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rttirib ko'rsatish, ta'sir kuchini oshirish uchun turli xil sintaktik-stilistik vositalardan foydalanishadi. Badiiy nutqda eng ko'p qo'llaniladigan sintaktik-stilistik vositalardan biri bu – takror hisoblanadi. Takror so'z yoki iboralarni aynan takrorlash orqali fikrning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bu usul yordamida muallif his-tuyg'ularini chuqurroq ifodalaydi, tinglovchi yoki o'quvchi e'tiborini jalb qiladi hamda tasvir etilayotgan narsaga o'zining shaxsiy munosabatini bildiradi. Takror poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llanadigan sintaktik-stilistik figura hisoblanadi. Eng mahsuldor ta'sirchan takror ko'rinishi – bu sintaktik takror usulidir. Nutqda so'z birikmalari, gap bo'laklari va gap turlarining aynan takrorlanishi natijasida sintaktik takror hodisasi yuzaga chiqadi⁵.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, takror til tizimida tasodifiy yoki faqat badiiy bezak vazifasini bajaruvchi hodisa emas, balki nutqning mazmuniy, uslubiy va pragmatik jihatdan shakllanishida muhim o'rin tutuvchi universal lingvistik vositadir. Takror tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarida namoyon bo'lib, har bir sathda o'ziga xos funksional yukni bajaradi. Ayniqsa, sintaktik takror nutqning mantiqiy izchilligini ta'minlash, asosiy fikrni ajratib ko'rsatish va kommunikativ ta'sirchanlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, takror hodisasining funksional-uslubiy tahlili uning emotsional-ekspressivlik yaratish, axborotni muhimlashtirish va matnning semantik yaxlitligini ta'minlashdagi rolini

³ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси», 2002. – Б. 101.

⁴ Мамажонов А. Такрор ва унинг синтактик-стилистик функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – № 3. – Б. 60.

⁵ Mamajonov A. Roziqova G. Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari darslik. - Farg'ona, 2024, 22-bet.

yaqqol namoyon etadi. Kognitiv yondashuv asosida olib borilgan tahlil esa takrorning inson tafakkuri, diqqatni boshqarish va konseptual tuzilmalarni mustahkamlash jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu holat takrorning nafaqat til birliklarining shakliy takrorlanishi, balki ongda ma’no qurilishi jarayonining muhim mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, takrorning lingvistik hodisa sifatida o‘rganilishi til va tafakkur munosabatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda matn lingvistikasi, stilistika va kognitiv tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonov A. Roziqova G. Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari darslik. – Farg‘ona, 2024.
2. Mamajonov A. Qo‘shma gap stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Мамажонов А. Такрор ва унинг синтактик-стилистик функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – № 3. – Б. 60.
4. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 40-bet.
5. Мальцев В. А. Параллелизм, его связи с пофтором и роль в организации художественного текста // Романское и германское языкознание. – Минск: Изд-во Минск. гос.пед. ин- та ин.яз, 1976. – С. 128-140
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси», 2002. – Б. 101.